

Uzbekistan Airways Sharm el-Shayxga aviaqatnovlar sonini oshirmoqda

2022 24 Oktabr

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi Toshkent – Sharm el-Shayx – Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha aviaqatnovlar soni oshirilganini ma’lum qiladi. Hozirda Misrdagi kurort shahriga qatnovlar haftada 1 marta – shanba kunlari amalga oshirilayotgan edi. Uzbekistan Airways joriy yilning 23-noyabrdan ushbu xalqaro yo‘nalishda chorshanba kunlari qo’shimcha qatnovlarni yo’lga qo’yadi.

Toshkent – Sharm-el-Shayx yo‘nalishidagi chiptalar narxi 2 396 845 so‘mdan, Toshkent – Sharm-el-Shayx – Toshkent yo‘nalishidagi aviachiptalar narxi esa 4 412 808 so‘mdan boshlanadi.

Narxlari 24.10.2022 holatiga ko‘ra amal qiladi.

App Store va Google Play’da «UzAirways» ilovasini yuklab oling va aviachiptalar va qo’shimcha xizmatlarni ham yanada qulayroq xarid qiling.